

O'zbekiston Respublikasining Qonuni

Davlat qarzi to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 29-martda qabul qilingan

Senat tomonidan 2022-yil 4-avgustda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi davlat qarzi va uni boshqarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Davlat qarzi to'g'risidagi qonunchilik

Davlat qarzi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat kafolati — qarz oluvchi-rezident qarz shartnomasi shartlarini bajarmagan taqdirda yuzaga keladigan, O'zbekiston Respublikasining qarz beruvchi oldidagi qarzni to'liq yoki qisman to'lab berish majburiyati;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish — aktivlarni jalb etish bo'lib, ular bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi;

davlat qarzi — O'zbekiston Respublikasining ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlari;

davlat qarzini qayta moliyalashtirish — davlat tomonidan mablag' jalb qilish vositasida davlat qarzini to'lash;

qarz beruvchi — qarz shartnomasi bo'yicha aktivlar bergan yoki aktivlar berish niyatida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti (chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar, xalqaro moliya institutlari va iqtisodiy institutlar, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlari, chet el investorlari va O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentlari);

qarz oluvchi — qarz beruvchidan qarz shartnomasi bo'yicha aktivlarni jalb qilgan yoxud aktivlarni jalb qilish niyatini hujjatlar bilan tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi rezidenti (qarz oluvchi-rezident) yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi timsolida O'zbekiston Respublikasi.

2-bob. Davlat organlarining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari

4-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari davlat qarzini boshqarish sohasida:

davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo‘yicha yillik limitlarni belgilaydi;

davlat qarzini boshqarish strategiyasining amalga oshirilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqadi;

davlat qarzining holati va o‘zgarishi to‘g‘risidagi, shuningdek davlat tomonidan jalb qilingan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi haqidagi, shu jumladan davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning bajarilishi jarayoni hamda natijadorligi to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqadi;

davlat qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan ellik foizga yetganda ushbu Qonun 35-moddasining [uchinchi qismida](#) nazarda tutilgan chora-tadbirlarni muhokama qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti:

davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi nomidan mablag‘ jalb qilishga va davlat kafolatini berishga doir tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi nomidan davlat qarziga oid shartnomalarni va ularga doir qo‘shimcha kelishuvlarni tuzadi yoki ularni O‘zbekiston Respublikasi nomidan tuzish uchun boshqa organga vakolat beradi;

davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish tartibini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi;

davlat qarzini boshqarish strategiyasini tasdiqlaydi va uning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo‘yicha yillik limitlarni belgilash yuzasidan takliflar kiritadi;

davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi nomidan mablag‘ jalb qilishga va davlat kafolatini berishga doir tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi nomidan davlat qarziga oid shartnomalarni va ularga doir qo‘shimcha kelishuvlarni tuzadi yoki ularni O‘zbekiston Respublikasi nomidan tuzish uchun boshqa organga vakolat beradi;

davlat g'aznachilik obligatsiyalarining chiqarilishi, joylashtirilishi, muomalada bo'lishi va muomaladan chiqarilishi tartibini belgilaydi;

davlat kafolatini berish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi:

davlat qarzini boshqarish samaradorligi yuzasidan monitoring o'tkazadi;

davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish miqdorlarini va uning maqsadga muvofiqligini baholashni amalga oshiradi;

davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lardan samarali va oqilona foydalanilishi, shuningdek davlat qarzi bo'yicha o'z vaqtida hamda to'liq xizmat ko'rsatilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning shakllantirilishi yuzasidan monitoring o'tkazadi hamda nazoratni amalga oshiradi;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning to'liq va samarali bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshirilgan va yakunlangan loyihalarni auditdan o'tkazadi hamda audit natijalari haqidagi axborotni har yil oxirida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan tuzilgan shartnoma asosida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining fiskal agenti sifatida:

davlat g'aznachilik obligatsiyalarini joylashtirishda, ularning joylashtirilishini ro'yxatdan o'tkazishda, davlat g'aznachilik obligatsiyalarining qiymatini, ular bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashda, shuningdek o'zga operatsiyalarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

davlat qarzi bo'yicha bank operatsiyalarini tashkil etadi;

davlat qarzi bo'yicha bank operatsiyalarini tashkil etish uchun tijorat banklariga agentlik vakolatlarini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatli organdir (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi).

Vakolatli organ:

davlat qarzini boshqarish strategiyasi loyihasini ishlab chiqadi va uni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo'yicha yillik limitlarni belgilash yuzasidan takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi nomidan mablag' jalb qiladi;

davlat kafolatini berishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;

davlat kafolatini (davlat kafolatini tasdiqlovchi hujjatni) rasmiylashtiradi;

davlat tomonidan mablag'lar jalb qilishning davlat qarzi barqarorligiga ta'sirini baholaydi;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish, shuningdek davlat qarzini restrukturizatsiya qilish bo'yicha barcha muzokaralarda ishtirok etadi;

davlat tomonidan jalb qilinadigan mablag'ning miqdorini, muddatini, valyuta turini, foiz stavkasining turini (qat'iy belgilangan yoki o'zgaruvchan), qarz vositasini va boshqa shartlarini O'zbekiston Respublikasi nomidan belgilaydi;

davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlardan, davlat qarzini boshqarish strategiyasidan, davlat qarzining barqarorligidan va davlat qarzini boshqarish chog'ida yuzaga keladigan xatarlardan (bundan buyon matnda davlat qarzi bilan bog'liq xatarlar deb yuritiladi) kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi nomidan mablag' jalb qilishni yoki davlat kafolatini berishni to'xtatib turish choralarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'larini qaytadan kreditlashda davlat qarzi bilan bog'liq xatarlarni qoplash uchun O'zbekiston Respublikasining marjasini belgilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun mablag'larning manbalarini aniqlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi;

davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomada belgilangan majburiyatlar o'z muddatida bajarilmaganligi tufayli qarz beruvchiga qarzni qarz oluvchidan qarzdorlik davri tugaguniga qadar to'liq yoki qisman to'lab berishni talab qilish imkoniyatini beradigan vaziyat (bundan buyon matnda davlat kafolati hodisasi deb yuritiladi) yuzaga kelgan taqdirda davlat kafolatini tasdiqlovchi hujjatga muvofiq asosiy qarzni, foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashni amalga oshiradi (bundan buyon matnda davlat kafolatini bajarish deb yuritiladi);

davlat kafolati to'g'risidagi shartnoma va qaytadan kreditlash to'g'risidagi shartnoma shartlarining bajarilishi yuzasidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi nomidan mablag' jalb qilish hisobidan loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlarining (bundan buyon matnda loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari deb yuritiladi) moliyaviy holati yuzasidan tizimli monitoringni amalga oshiradi;

davlat qarzi bo'yicha to'lovlarni o'z muddatida to'lamayotgan tashkilotlar tomonidan mazkur qarz to'languniga qadar yangi davlat qarzini jalb qilishni to'xtatib turish choralarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqaradi va bunda maslahat xizmatlari hamda boshqa xizmatlar ko'rsatilishiga doir hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi nomidan imzolaydi;

davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozorini tartibga solish va rivojlantirish sohasidagi siyosatni belgilaydi hamda amalga oshiradi;

ilgari chiqarilgan davlat g'aznachilik obligatsiyalarini qayta moliyalashtirish yoki muomaladan chiqarish uchun davlat g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

davlat qarzini boshqarish doirasida turli valyutalardagi pul mablag'larini va boshqa qisqa muddatli moliyaviy aktivlarni boshqaradi;

davlat qarzining hisobi va hisobotini yuritadi, davlat qarzi bo'yicha axborot ma'lumotlar bazasini shakllantiradi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga davlat qarzi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlaydi;

o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar (bundan buyon matnda davlat ishtirokidagi korxonalar deb yuritiladi) tomonidan xalqaro obligatsiyalar chiqarilishini muvofiqlashtirishga doir operatsiyalarni amalga oshiradi;

(9-modda ikkinchi qismining yigirma uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi O'RQ-1025-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son. Kuchga kirish sanasi — 2025-yil 8-may)

davlatning shartli majburiyatlarini boshqaradi, shu jumladan davlatning shartli majburiyatlari bo'yicha xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish, ularni bartaraf etish va kamaytirish choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Davlat qarzini boshqarish, davlat qarzini boshqarishning asosiy prinsiplari, maqsadlari va strategiyasi

10-modda. Davlat qarzini boshqarish

Davlat qarzini boshqarish quyidagilardan iborat:

davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish;

davlat tomonidan jalb qilingan mablag'larni boshqarish;

davlat qarzi bilan bog'liq xatarlarni boshqarish;

davlat qarzini restrukturizatsiya qilish;

davlat tomonidan jalb qilingan mablag'larni qaytadan kreditlash;

davlat kafolatini rasmiylashtirish va taqdim etish;

davlat qarziga oid shartnomalarning va davlat kafolatlarining ro'yxatini yuritish;

davlat qarzining hisobi va hisobotini yuritish;

davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatilishini ta'minlash va davlat kafolatini bajarish.

11-modda. Davlat qarzini boshqarishning asosiy prinsiplari

Davlat qarzini boshqarishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ustuvorligi;

davlat qarzining ustuvorligi;

davlat qarzi bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi;

davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lardan foydalanishning natijadorligi;

ochiqlik va shaffoflik.

12-modda. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ustuvorligi prinsipi

Davlat qarzini boshqarishda makroiqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi xatarlarning davlat tomonidan mablag' jalb qilish miqdori, shuningdek davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan qat'iy nazorat qilish orqali oldini olish ustuvor ahamiyatga egadir.

13-modda. Davlat qarzining ustuvorligi prinsipi

Davlat qarzi qachon va qanday usulda jalb qilinganligidan qat'i nazar, ustuvor va teng maqomga ega bo'ladi.

Davlat qarzi bo'yicha asosiy qarz, foizlar va boshqa to'lovlar O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlari bilan ta'minlanadi.

Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va davlat kafolatini bajarish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ustuvor xarajatlaridir.

14-modda. Davlat qarzi bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi prinsipi

Davlat qarzi, shu jumladan davlat kafolati bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi kafolatlanadi.

15-modda. Davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lardan foydalanishning natijadorligi prinsipi

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tashabbus bilan chiqqan qarz oluvchilar ushbu loyihalarning natijadorligini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.

16-modda. Ochiqlik va shaffoflik prinsipi

Ochiqlik va shaffoflik prinsipi davlat qarzini boshqarish to'g'risidagi axborotni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, vakolatli organning rasmiy veb-saytiga joylashtirish va yangilab borish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga kiritish orqali ta'minlanadi.

Davlat qarzini boshqarish to'g'risidagi axborot:

davlat qarzini boshqarish strategiyasini va uning amalga oshirilishini;

davlat qarzining miqdorini va uning o'zgarishini;

davlat tomonidan jalb qilinishi rejalashtirilayotgan mablag'larni;

davlat tomonidan jalb qilingan mablag'larni;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish bo'yicha shartnomalarni;

davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi va ularning samaradorligi hamda davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

17-modda. Davlat qarzini boshqarish maqsadlari

Davlat qarzini boshqarish maqsadlari quyidagilardan iborat:

o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti taqchilligini qoplashga, shuningdek davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni (bundan buyon matnda davlat tomonidan mablag' jalb qilish vositasida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoji deb yuritiladi) xarajatlar va xatarlarning eng maqbul darajasida ta'minlash;

davlat qarzini to'lashning o'rtacha muddatini uzaytirish, shuningdek davlat qarzini valyutalar va manbalar bo'yicha diversifikatsiya qilish;

davlat tomonidan O'zbekiston Respublikasi valyutasida mablag' jalb qilish amaliyotini kengaytirish;

davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xatarlarning oldini olish, ularni bartaraf etish yoki kamaytirish.

18-modda. Davlat qarzini boshqarish strategiyasi

Davlat qarzini boshqarish strategiyasi davlat qarzini boshqarish maqsadlaridan kelib chiqqan holda davlat qarzini boshqarishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydigan hujjatdir.

Davlat qarzini boshqarish strategiyasi:

davlat qarzining joriy holati va prognozlarini;

davlat qarzi portfelining xarajatlari va xatari ko'rsatkichlarini;

davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish holati va prognozlarini;

moliya bozorlarining joriy holatini va keyingi davr uchun prognozlarini;

davlat qarzining barqarorligi ko'rsatkichlarini;

davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlarni belgilash yuzasidan tavsiyalarni;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish vositasida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojini;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish vositasida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida xarajatlar va xatarlarning eng maqbul darajasida ta'minlash rejasini;

davlat qarzi bilan bog'liq xatarlarni boshqarishga va davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish xarajatlarni

kamaytirishga doir choralarni, shuningdek boshqa tegishli axborotni o'z ichiga oladi.

19-modda. Davlat qarzini boshqarish strategiyasini tasdiqlash

Davlat qarzini boshqarish strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan fiskal strategiya bilan birgalikda uch yil muddatga tasdiqlanadi.

Davlat qarzini boshqarish strategiyasi har yili aniqlashtiriladi va yangilab boriladi.

Kelgusi yil uchun aniqlashtirilgan va yangilangan davlat qarzini boshqarish strategiyasi:

vakolatli organ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga joriy yilning 1-iyuniga qadar kiritiladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15-iyuniga qadar muhokama qilinadi va tasdiqlanadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga ma'lumot uchun kiritiladi va vakolatli organ tomonidan o'z rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

20-modda. Davlat tomonidan jalb qilingan mablag'larni boshqarish

Davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lar, agar qarz beruvchi bilan boshqacha qoida kelishilmagan bo'lsa, qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasidagi hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Vakolatli organ, agar qarz beruvchi bilan boshqacha qoida kelishilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yoki tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishga haqli, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan qarz mablag'larini qaytadan kreditlashga yoki boshqa maqsadlarga yo'naltirishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi nomidan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilingan qarz mablag'laridan maqsadli foydalanilguniga qadar hisoblanadigan foizli xarajatlarning o'rni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining G'aznachilik xizmati qo'mitasi huzuridagi Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi (bundan buyon matnda Kafolat jamg'armasi deb yuritiladi) yoki O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

21-modda. Davlat qarzi bilan bog'liq xatarlarni boshqarish

Davlat qarzi bilan bog'liq xatarlar:

valyuta kurslarining o'zgarishi xatarini;

foiz stavkalarining o'zgarishi xatarini;

davlat qarzini qayta moliyalashtirish xatarini;

moliya bozorlarida likvidlilik taqchilligining yuzaga kelishi xatarini;

qarz oluvchi-rezidentning yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlarining vakolatli organ oldidagi majburiyatlarini shartnomada ko'rsatilgan muddatda va shartlar asosida bajarmaganligi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlar (zarar) (bundan buyon matnda kredit xatari deb yuritiladi) bilan bog'liq xatarni hamda boshqa xatarlarni o'z ichiga oladi.

Davlat qarzi bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish davlat qarzini boshqarishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish, ularni bartaraf etish va kamaytirish uchun amalga oshiriladigan harakatlar majmuidan iborat.

Davlat qarzi bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish quyidagi harakatlarni o‘z ichiga oladi:

foiz stavkalari va valyuta bo‘yicha hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirishni;

O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat qimmatli qog‘ozlarini qaytarib sotib olish, muddatidan oldin muomaladan chiqarish yoki O‘zbekiston Respublikasi nomidan boshqa turlarda va (yoki) boshqa shartlar asosida chiqarilgan davlat qimmatli qog‘ozlariga ayirboshlashni, shuningdek boshqa operatsiyalarni;

davlat qarzini qayta moliyalashtirishni;

davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlarni belgilashga doir takliflar ishlab chiqish va fiskal qoidalarni joriy etishni;

davlat tomonidan mablag‘ jalb qilishda mablag‘larning manbalarini, valyutasini, foiz stavkasini va qarz vositasini rejalashtirishni;

qarz oluvchi-rezidentlarning moliyaviy holatini va davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish hisobidan moliyalashtirilishi taklif etilayotgan loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq xatarlarni baholashni;

qarz oluvchi-rezidentlarning moliyaviy holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshirishni;

davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish va davlat kafolatini bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan yetarli mablag‘lar ajratilishini ta‘minlashni.

Davlat qarzi bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish qonunchilikka muvofiq boshqa harakatlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Vakolatli organ davlat qarzi bilan bog‘liq xatarlarni boshqarishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yordamidan hamda boshqa tashkilotlarning, shu jumladan chet el va xalqaro tashkilotlarning pulli yoki haq to‘lanmaydigan xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

Davlat qarzi bilan bog‘liq xatarlarni baholashga doir xizmatlar uchun to‘lov O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari hamda davlat kafolatini so‘rab murojaat qilgan qarz oluvchi-rezidentlarning mablag‘lari hisobidan qoplanishi mumkin.

Davlat qarzi bilan bog‘liq xatarlarni baholash uslubiyati vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

4-bob. Davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish, davlat tomonidan jalb qilingan qarz mablag‘larini qaytadan kreditlash va restrukturizatsiya qilish, davlatning shartli majburiyatlari

22-modda. Davlat qarzining ustuvorligini ta‘minlash

Davlat qarzi bo‘yicha asosiy qarzni, foizlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lash hamda davlat kafolatini bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan yetarli mablag‘lar ajratiladi.

Davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish va davlat kafolatini bajarish bilan bog‘liq xarajatlar uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar har yili navbatdagi yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan belgilanadi. Ushbu maqsadlar uchun budjetdan ajratilgan mablag‘larni boshqa maqsadlarga yo‘naltirish (bundan moliya yili davomida iqtisod qilingan mablag‘lar mustasno), davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish va davlat kafolatini

bajarish bilan bog'liq xarajatlarni to'xtatib turish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralaridan (bundan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining zaxiralari mustasno) davlat qarzi bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashga nisbatan ta'minot sifatida foydalanilmaydi.

23-modda. Davlat tomonidan mablag' jalb qilish

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish ichki mablag'ni va xorijdan mablag'ni jalb qilishdan iborat.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish O'zbekiston Respublikasi rezidentlaridan mablag'larni jalb etish bo'lib, bu mablag'lar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlar kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish chet el manbalaridan (chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya institutlaridan va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentlaridan) mablag'larni jalb etishdan iborat bo'lib, bu mablag'lar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlar kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish:

O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish;

O'zbekiston Respublikasi nomidan kreditlar va kredit liniyalari vositasida mablag' jalb qilish;

davlat kafolati ostida mablag' jalb qilish tarzida amalga oshirilishi mumkin.

Vakolatli organ O'zbekiston Respublikasining rezidentidan mablag' jalb qilganda majburiyatlarning bajarilishini garov, kafolat, kafillik va boshqa usullar vositasida ta'minlash talab etilmaydi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlar doirasida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki ular vakolat bergan organ O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qarziga oid shartnomalarni va ularga doir qo'shimcha kelishuvlarni tuzish huquqiga ega.

Agar O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qarziga oid shartnomalarni tuzish vakolati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan boshqa organga beriladigan bo'lsa, davlat qarziga oid shartnomalar va ularga doir qo'shimcha kelishuvlar tuzilguniga qadar vakolatli organ bilan kelishib olinishi kerak.

Davlat g'aznachilik obligatsiyalarini davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlar doirasida chiqarish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining taqchilligiga, vaqtinchalik kassa uzilishi prognoziga va moliya bozorlaridagi vaziyatga asosan vakolatli organ tomonidan qabul qilinadi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar ushbu Qonunda nazarda tutilgan vakolatlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hamda vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra belgilangan tartibda shakllantiriladi.

Hududlarda davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari bilan kelishiladi.

Ushbu moddaning [o'ninchi](#) va [o'n birinchi qismlariga](#) muvofiq shakllantirilgan hamda tegishli xalq

deputatlari Kengashlari bilan kelishilgan loyihalar O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritiladi.

Davlat qarziga oid shartnomalarni va davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomalarni loyiha oldi bahosiga yoki texnik iqtisodiy asosiga ega bo'lmagan loyihalar bo'yicha tuzish taqiqlanadi, bundan institutsional salohiyatni oshirishga qaratilgan loyihalar mustasno.

Davlat qarziga oid shartnoma taraflarning O'zbekiston Respublikasi nomidan mablag' jalb qilish bo'yicha huquqlari va majburiyatlari yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi to'g'risidagi kelishuvdir.

Davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnoma taraflarning davlat kafolati ostida mablag' jalb qilish bo'yicha huquqlari va majburiyatlari yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi to'g'risidagi kelishuvdir.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning texnik-iqtisodiy asosi parametrlarini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligi, belgilangan ko'rsatkichlarga erishish, qarzni qaytarish uchun mas'ul bo'lgan rahbarlar, shuningdek ularning javobgarligi belgilanadi.

24-modda. Davlat tomonidan mablag' jalb qilish maqsadlari

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining taqchilligini qoplash;

ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish;

davlat qarzini qayta moliyalashtirish;

davlat qarzini boshqarish strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish;

pul mablag'larini boshqarish, shu jumladan vaqtinchalik kassa uzilishining o'rnini qoplash bo'yicha operatsiyalarni bajarish;

to'lov balansini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladi.

Ushbu moddada ko'zda tutilmagan boshqa maqsadlarga davlat tomonidan mablag' jalb qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining taqchilligini qoplash uchun amalga oshiriladi.

25-modda. Davlat kafolatini berishda va davlat tomonidan jalb qilingan qarz mablag'larini qaytadan kreditlashda qo'yiladigan talablar

Davlat kafolatini hamda O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan, qaytadan kreditlanadigan qarz mablag'larini (bundan buyon matnda qaytadan kreditlanadigan mablag'lar deb yuritiladi) olish uchun qarz oluvchi-rezidentlar va loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari:

auditorlik tekshiruvidan o'tgan moliyaviy hisobotlarga muvofiq to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilik bo'yicha ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishi;

davlat tomonidan jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti oldida muddati o'tgan qarzдорlikka ega bo'lmashligi kerak.

Davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish hisobidan amalga oshirish uchun taklif etiladigan loyihalar:

davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid ustuvor yo‘nalishlariga va strategik maqsadlariga muvofiq bo‘lishi;

jisman va moliyaviy jihatdan amalga oshirila olinadigan bo‘lishi;

natijador bo‘lishi va iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqacha naf keltirishi;

belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va ekspertizadan o‘tgan texnik-iqtisodiy asosga ega bo‘lishi kerak.

26-modda. Davlat qarzi

Davlat qarzi davlat ichki qarzini va davlat tashqi qarzini o‘z ichiga oladi.

Davlat qarzi qisqa muddatli (bir yilgacha bo‘lgan muddatga), o‘rta muddatli (bir yildan besh yilgacha bo‘lgan muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga), O‘zbekiston Respublikasi valyutasida yoki chet el valyutalarida bo‘lishi mumkin.

Davlat qarzi O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyatlarini va davlat kafolatini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyati O‘zbekiston Respublikasi nomidan mablag‘ jalb qilish natijasida yuzaga keladigan majburiyat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi ushbu majburiyat bo‘yicha qarz beruvchi oldida davlat qarziga oid shartnomaga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgar bo‘ladi.

Agar qarz beruvchilar bir nechta bo‘lsa, qarz beruvchilar guruhida vakolatli boshqaruvchining vazifalarini bajaruvchi shaxs qarz beruvchi bo‘lishi mumkin.

27-modda. Davlat ichki qarzi

Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish natijasida yuzaga kelgan O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlari yig‘indisi davlat ichki qarzidir.

Davlat ichki qarzi quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi nomidan davlat g‘aznachilik obligatsiyalarini O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari o‘rtasida birlamchi tarzda joylashtirish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar;

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlaridan mablag‘ni kreditlar va kredit liniyalari vositasida O‘zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar;

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlaridan mablag‘ni qarz oluvchi-rezidentlar tomonidan davlat kafolati ostida jalb qilish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar.

Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish O‘zbekiston Respublikasi valyutasida yoki chet el valyutalarida amalga oshirilishi mumkin.

28-modda. Davlat tashqi qarzi

Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida yuzaga kelgan O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlari yig‘indisi davlat tashqi qarzidir.

Davlat tashqi qarzi quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro obligatsiyalarni (bundan buyon matnda suveren xalqaro obligatsiyalar deb yuritiladi) va davlat g'aznachilik obligatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi norezidentlari o'rtasida birlamchi tarzda joylashtirish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar;

O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridan mablag'ni kreditlar va kredit liniyalari vositasida O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar;

O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridan mablag'ni qarz oluvchi-rezidentlar tomonidan davlat kafolati ostida jalb qilish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar.

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish O'zbekiston Respublikasi valyutasida yoki chet el valyutalarida amalga oshirilishi mumkin.

29-modda. Davlat qarzini restrukturizatsiya qilish

Davlat qarzini restrukturizatsiya qilish qarz beruvchilar bilan kelishuvga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

Davlat qarzi quyidagi tarzda restrukturizatsiya qilinishi mumkin:

davlat qarzini to'lash muddatlari va shartlarini o'zgartirish yo'li bilan;

asosiy qarzni, foiz stavkasini yoki davlat qarzining shaklini o'zgartirish yo'li bilan;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa yo'llar bilan.

O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarzni restrukturizatsiya qilish vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzni restrukturizatsiya qilish uchun dastlab vakolatli organning roziligi talab etiladi.

Qarz oluvchi-rezidentlar davlat kafolati ostida jalb qilingan o'z qarzlarini restrukturizatsiya qilishga rozilik olish uchun vakolatli organga quyidagi axborotni ilova qilgan holda yozma (elektron) shaklda murojaat etadi:

restrukturizatsiya qilinishi lozim bo'lgan qarzning miqdori, foiz stavkasi, to'lash jadvali, shuningdek boshqa shartlar to'g'risidagi;

davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzni restrukturizatsiya qilish zaruratining asoslantirilgan sababi haqidagi;

davlat kafolati ostida jalb qilingan qarz restrukturizatsiya qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan ajratilishi zarur bo'lgan mablag'lar to'g'risidagi;

davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzni restrukturizatsiya qilish rejasi haqidagi.

Vakolatli organ qarz oluvchi-rezidentlarning ushbu moddaning [beshinchi qismida](#) ko'rsatilgan axborot ilova qilinmagan murojaatlarini ko'rmasdan qoldiradi hamda bu haqda qarz oluvchi-rezidentlarni yozma ravishda xabardor qiladi.

Vakolatli organ davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzni quyidagi talablarga to'liq rioya etilgan taqdirda restrukturizatsiya qilishga rozilik beradi:

davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzni restrukturizatsiya qilish O'zbekiston Respublikasining suveren

kredit reytingiga hamda makroiqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak;

davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzni restrukturizatsiya qilish vakolatli organ oldidagi majburiyatlarning qarz oluvchi-rezident tomonidan bajarilmasligiga olib kelmasligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan qo'shimcha mablag'lar ajratilishini talab etmasligi kerak;

davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzni restrukturizatsiya qilish qarz oluvchi-rezidentning davlat kafolati ostida jalb qilingan boshqa qarzlari o'z vaqtida va to'liq to'lanishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak;

davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzni restrukturizatsiya qilishda davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomada bayon etilgan moliyaviy shartlar va talablarga (kovenantlarga) qat'iy rioya etilishi zarur.

Vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarzlarni restrukturizatsiya qilishda xalqaro va milliy moliyaviy hamda yuridik maslahatchilar xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

30-modda. O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'larini qaytadan kreditlash

O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'lari davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun vakolatli organ tomonidan qaytadan kreditlanishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'lari qaytadan kreditlanadigan bo'lsa, vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq qaytadan kreditlash to'g'risida shartnoma va unga doir qo'shimcha kelishuvlar tuzadi.

Qaytadan kreditlanadigan mablag'larning miqdori, ulardan maqsadli foydalanilishi, ularning valyutasi, asosiy qarzi, foizlari, shuningdek boshqa shartlari qaytadan kreditlash to'g'risidagi shartnomada belgilanadi.

Qaytadan kreditlash to'g'risidagi shartnoma shartlari davlat qarziga oid shartnomaning shartlaridan, qarz oluvchi-rezidentlarning yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlarining faoliyatini o'rganishda lozim darajadagi ehtiyotkorlikdan ("due diligence"), loyihaning texnik-iqtisodiy asosi ekspertizasidan va kredit xataridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan chet el valyutalarida jalb qilingan qarz mablag'lari ushbu valyutalarda yoki O'zbekiston Respublikasi valyutasida qaytadan kreditlanishi mumkin.

Vakolatli organ, har bir qarz oluvchi-rezidentga yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotiga kredit xataridan kelib chiqqan holda, qaytadan kreditlanishi mumkin bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'larining eng yuqori miqdorini belgilashga doir takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritishi mumkin.

Vakolatli organ qaytadan kreditlash to'g'risidagi shartnoma shartlariga rioya etilishi, shuningdek qarz oluvchi-rezidentlarning va loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlarining moliyaviy holati ustidan tizimli monitoringni amalga oshiradi. Qarz oluvchi-rezidentlar va loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari o'z moliyaviy holati hamda qaytadan kreditlash to'g'risidagi shartnoma shartlariga rioya etilishi haqida vakolatli organ tomonidan so'raladigan axborotni o'z vaqtida, to'liq va sifatli tarzda taqdim etadi.

31-modda. Davlatning shartli majburiyatlari

Quyidagilar davlatning shartli majburiyatlari jumlasiga kiradi:

davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar;

davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan jalb qilingan qarzlar, bundan O‘zbekiston Respublikasi nomidan yoki davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzlar mustasno.

Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

32-modda. Davlat qarzi hisoblanmaydigan majburiyatlar

Ushbu Qonunning [26-moddasida](#) nazarda tutilgan majburiyatlardan farq qiladigan boshqa majburiyatlar, shu jumladan:

davlatning shartli majburiyatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiyatlari davlat qarzi hisoblanmaydi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shu jumladan davlat ishtirokidagi korxonalarning qarzlar O‘zbekiston Respublikasi nomidan yoki davlat kafolati ostida jalb qilinmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi bunday qarzlar bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi.

33-modda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini qabul qilishda mablag‘lar jalb qilishga, shuningdek moliyaviy kafolatlar hamda kafilliklar berishga nisbatan qo‘llaniladigan cheklovlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini qabul qilish hamda ijro etishda:

mablag‘lar jalb qilishni amalga oshirishga (bundan budjet ssudalari shaklidagi budjetlararo transfertlar mustasno);

tegishli budjetlar mablag‘lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar hamda kafilliklar berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5-bob. Davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo‘yicha yillik limitlarni belgilash

34-modda. Davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlar

Davlat qarzi bo‘yicha cheklangan miqdorlar davlat qarzining eng yuqori miqdoridan va davlat qarzi bo‘yicha yillik limitlardan iboratdir.

35-modda. Davlat qarzining eng yuqori miqdori

Davlat qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan oltmish foizdan oshmasligi kerak.

Moliya yili davomida yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko‘rsatkichi o‘zgarganda yalpi ichki mahsulotning O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan aniqlangan prognozi qo‘llaniladi.

Davlat qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan ellik foizga yetganda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat qarzi ushbu moddaning [birinchi qismida](#) nazarda tutilgan davlat qarzi miqdoridan oshmasligini ta‘minlovchi chora-tadbirlarni belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga kiritadi.

36-modda. Davlat qarzi bo‘yicha yillik limitlarni belgilash

Davlat qarzi bo'yicha yillik limitlar davlat tomonidan mablag' jalb qilish bo'yicha har yili tuziladigan yangi shartnomalarning cheklangan sof miqdori bo'lib, har yili navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunida belgilanadi.

Davlat qarzi bo'yicha yillik limitlar nisbiy yoki mutlaq qiymatlarda quyidagilar kesimida belgilanishi mumkin:

davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish kesimida;

davlat tomonidan O'zbekiston Respublikasi valyutasida va chet el valyutalarida mablag' jalb qilish kesimida;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish maqsadlari kesimida;

davlat qarziga oid shartnomalar va davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomalar kesimida.

Davlat qarzi bo'yicha yillik limitlar doirasidagi davlat qarziga oid shartnomalar va davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomalar miqdorlarining hisobi ushbu shartnomalar tuzilgan sanada O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan valyuta kursiga asosan davlat qarzi bo'yicha yillik limitlar belgilangan valyutada yuritiladi.

Davlat qarzi bo'yicha yillik limitlarga quyidagilar kiritilmaydi:

ilgari tuzilgan hamda davlat qarzi bo'yicha yillik limitlar belgilanadigan moliya yilida to'liq yoki qisman bekor qilingan davlat tomonidan mablag' jalb qilishga doir shartnomalarning qiymatiga teng miqdorda davlat tomonidan mablag' jalb qilishga doir yangi shartnomalar;

moliya yili davomida O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan va mazkur moliya yili davomida to'lanadigan davlat qimmatli qog'ozlari;

ilgari O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlaridan ko'p bo'lmagan miqdorda O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan, davlat qarzini qayta moliyalashtirish maqsadida qayta moliyalashtirilishi lozim bo'lgan davlat qimmatli qog'ozlari;

E'tibor bering. 36-modda to'rtinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda O'RQ-1107-sonli [Qonuniga](#) asosan 2027-yil 1-yanvardan chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlarini boshqa shaklga va (yoki) shartlarga ega bo'lgan, xuddi shu qiymatdagi davlat qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlari.

37-modda. Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo'yicha yillik limitlarni belgilash

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo'yicha yillik limitlar har yili tuziladigan yangi shartnomalarning cheklangan miqdori bo'lib, ular har yili navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunida belgilanishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo'yicha yillik limitlar O'zbekiston Respublikasi valyutasida yoki chet el valyutalariga teng ekvivalentda, nisbiy yoki mutlaq qiymatlarda belgilanishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo'yicha yillik limitlar doirasidagi kafolatlar miqdorlarining hisobi ushbu kafolatlar rasmiylashtirilgan sanada O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan valyuta kursi asosida davlat-

xususiyl sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiyl sherikka beriladigan kafolatlar bo'yicha yillik limitlar belgilangan valyutada yuritiladi.

6-bob. O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlari

38-modda. O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlarining turlari

O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlari davlat g'aznachilik obligatsiyalaridan va suveren xalqaro obligatsiyalardan iboratdir.

39-modda. Davlat g'aznachilik obligatsiyalari

Davlat g'aznachilik obligatsiyalari O'zbekiston Respublikasining rezidentlari o'rtasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishuvga ko'ra O'zbekiston Respublikasining norezidentlari o'rtasida joylashtirilishi mumkin.

Vakolatli organ davlat g'aznachilik obligatsiyalarini quyidagi turlarda chiqarishi mumkin:

qat'iy belgilangan stavkali obligatsiyalar;

o'zgaruvchan stavkali obligatsiyalar;

diskont obligatsiyalar (nol kupon stavkali obligatsiyalar);

inflyatsiyaga bog'langan obligatsiyalar.

Vakolatli organ davlat g'aznachilik obligatsiyalarini qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa turlarda ham chiqarishi mumkin.

40-modda. Suveren xalqaro obligatsiyalar

Suveren xalqaro obligatsiyalar tegishli chet davlatning qonunchiligiga muvofiq chiqariladi va O'zbekiston Respublikasining norezidentlari o'rtasida joylashtiriladi.

Vakolatli organ suveren xalqaro obligatsiyalarni quyidagi turlarda chiqarishi mumkin:

qat'iy belgilangan stavkali obligatsiyalar;

o'zgaruvchan stavkali obligatsiyalar;

diskont obligatsiyalar (nol kupon stavkali obligatsiyalar);

inflyatsiyaga bog'langan obligatsiyalar.

Vakolatli organ suveren xalqaro obligatsiyalarni qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa turlarda ham chiqarishi mumkin.

Suveren xalqaro obligatsiyalarni chiqarish, agar chet davlat qonunchiligida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holda amalga oshiriladi.

Suveren xalqaro obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirishni tashkil etuvchi xalqaro moliyaviy hamda yuridik maslahatchilarni, shuningdek fiskal, to'lov, transfer va listing agentlarini tanlab olish hamda ularning xizmatlari uchun haqni tasdiqlash vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi. Bunda davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablari qo'llanilmaydi.

Vakolatli organ suveren xalqaro obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish jarayonida emissiya risolasini ishlab chiqadi. Emissiya risolasini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan axborot vakolatli organing so'rovi asosida vazirliklar hamda idoralar tomonidan o'z vaqtida va to'liq hajmda taqdim etilishi kerak.

(40-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-noyabrdagi O'RQ-880-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son)

7-bob. Davlat kafolati

41-modda. Davlat kafolatini berish to'g'risidagi umumiy qoidalar

Davlat kafolati qarz beruvchilarga davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun qarz oluvchi-rezidentlar tomonidan ular olgan kreditlar va kredit liniyalari bo'yicha majburiyatlar bajarilishining ta'minoti sifatida beriladi.

Davlat kafolati davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida vakolatli organ tomonidan rasmiylashtiriladi.

Davlat kafolati yozma shaklda beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni so'zsiz bajaradi.

42-modda. Davlat kafolatini berish tartibi

Qarz oluvchi-rezidentlar davlat kafolatini berish to'g'risidagi yozma (elektron) shakldagi ariza bilan vakolatli organga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda, quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda murojaat qiladi:

jalb qilinishi nazarda tutilgan mablag' bo'yicha qarz shartnomasining loyihasini;

jalb etiladigan qarz mablag'larini o'zlashtirish va qaytarish bo'yicha qarz oluvchi-rezident tomonidan imzolangan prognoz jadvallarini;

davlat kafolati ostida mablag' jalb qilish hisobiga moliyalashtirilishi nazarda tutilgan loyihaning texnik-iqtisodiy asosini;

qarz oluvchi-rezidentning qonunchilikda belgilangan shakllarda to'ldirilgan keyingi uch yil uchun moliyaviy hisobotlarini, shuningdek auditorlik tashkilotining ushbu moliyaviy hisobotlarning ishonchiligi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi to'g'risidagi fikrni o'z ichiga olgan xulosasini;

davlat kafolatini berish tartibiga muvofiq boshqa hujjatlarni.

Vakolatli organ qarz oluvchi-rezidentlarning ushbu moddaning [birinchi qismida](#) nazarda tutilgan hujjatlar ilova qilinmagan arizalarini ko'rmasdan qoldiradi va bu haqda qarz oluvchi-rezidentlarni yozma (elektron) shaklda xabardor qiladi.

Davlat kafolatini berish to'g'risidagi ariza ko'rmasdan qoldirilganligi haqidagi yozma (elektron) xabarnoma olganidan keyin qarz oluvchi-rezident tomonidan kiritilgan ariza yangitdan kiritilgan deb hisoblanadi va umumiy asoslarda taqdim etiladi.

Qarz oluvchi-rezidentlar vakolatli organga taqdim etilgan hujjatlardagi axborotning noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilganligi uchun javobgar bo'ladi.

Vakolatli organ qarz oluvchi-rezidentlarning arizalarini va ularga ilova qilingan hujjatlarni o'rganib chiqib, davlat kafolatini berish tartibida belgilangan muddatda pul oqimlarining tahlilini, qarz oluvchi-rezidentning loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy jihatdan qodirligini, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xatarlarni va loyihaning hayotiyiligini baholaydi hamda davlat kafolatini berishning maqsadga muvofiqligi yoki maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa kiritadi, shuningdek bu haqda qarz oluvchi-rezidentni yozma (elektron) shaklda xabardor qiladi.

Vakolatli organning davlat kafolati berilishining maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasisiz davlat kafolatini berish taqiqlanadi.

Davlat kafolati berilganligi uchun vakolatli organ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat kafolatini berish bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarning va xarajatlarning o'rnini qoplash uchun foydalaniladigan to'lov (bundan buyon matnda davlat kafolati berilganligi uchun to'lov deb yuritiladi) undiriladi. To'lov manbai O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag'laridan iborat bo'lgan qarzlar bo'yicha davlat kafolati berilganligi uchun to'lov undirilmaydi.

Davlat kafolati berilganligi uchun to'lov miqdori loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xatarlardan, shuningdek kredit xataridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vakolatli organ davlat kafolati ostida jalb etilgan qarz mablag'larini ushbu qarz mablag'lari qiymatidan kam bo'lmagan qiymatga teng garov yoki kafillik bilan ta'minlashni qarz oluvchi-rezidentlardan talab qilishga haqli.

Davlat kafolatini berish haqidagi qaror qabul qilingan taqdirda vakolatli organ qarz oluvchi-rezident bilan davlat kafolati to'g'risida shartnoma tuzadi va davlat kafolatini (davlat kafolatini tasdiqlovchi hujjatni) rasmiylashtiradi.

Davlat kafolati to'g'risidagi shartnoma davlat kafolati ostida jalb qilingan qarz mablag'laridan foydalanish, ularni hisobga olish hamda qaytarish bo'yicha taraflarning huquqlari va majburiyatlari yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi haqida vakolatli organ va O'zbekiston Respublikasining rezidenti o'rtasidagi kelishuvdir.

43-modda. Davlat kafolati berilmaydigan majburiyatlar

Quyidagi majburiyatlar bo'yicha davlat kafolati berilmaydi:

jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo'yicha;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foizdan kam bo'lgan yuridik shaxslarning majburiyatlari bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining majburiyatlari bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiyatlari bo'yicha;

qayta tashkil etish yoki tugatish jarayonida turgan va o'ziga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo'llanilgan davlat ishtirokidagi korxonalarning majburiyatlari bo'yicha;

notijorat tashkilotlarining majburiyatlari bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti oldida muddati o'tgan qarzдорligi mavjud bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalarning majburiyatlari bo'yicha;

texnik-iqtisodiy asosi talab etiladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun texnik-iqtisodiy asossiz mablag'

jalb qilinishi natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha.

44-modda. Qarz oluvchi-rezidentlarning majburiyatlari

Qarz oluvchi-rezidentlar davlat kafolati to'g'risidagi shartnomada hamda davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarishi kerak.

Qarz oluvchi-rezidentlarga davlat kafolati amalda bo'lgan muddat mobaynida quyidagilar taqiqlanadi:

vakolatli organing rozilgisiz qarz mablag'larini jalb qilishni nazarda tutuvchi yangi shartnomalar tuzish;

davlat kafolati to'g'risidagi shartnomada va davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomada belgilangan majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, foydani vakolatli organ bilan kelishmagan holda taqsimlash.

45-modda. Davlat kafolatining o'z kuchini yo'qotishi

Davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomada nazarda tutilgan moliyaviy va boshqa majburiyatlar to'liq bajarilganda davlat kafolati o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

8-bob. Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va davlat kafolatini bajarish

46-modda. Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatishga va davlat kafolatini bajarishga doir umumiy qoidalar

Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish davlat tomonidan mablag' jalb qilish bo'yicha shartnomalarda belgilangan asosiy qarzni, foizlarni hamda boshqa to'lovlarni ushbu shartnomalarda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Davlat kafolatini bajarish davlat kafolatini tasdiqlaydigan hujjatga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish manbalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi.

Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va davlat kafolatini bajarish bilan bog'liq xarajatlar qarz oluvchi-rezidentlarning yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlarining, Kafolat jamg'armasining, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan kreditlar va kredit liniyalari bo'yicha barcha turdagi shartnomalarni, shu jumladan shartnomalarga doir qo'shimcha kelishuvlarni rasmiylashtirish vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan chet el valyutalarida jalb qilingan mablag'lar ushbu valyutalarda yoki O'zbekiston Respublikasi valyutasida qaytadan kreditlanishi natijasida yuzaga kelgan salbiy tafovutlar Kafolat jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari yoki boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

Davlat qarzi bo'yicha majburiyatlar davlat qarzig'a oid shartnomada va davlat kafolati berilgan qarzga doir shartnomada belgilangan barcha to'lovlar to'liq to'langanda bajarilgan deb e'tirof etiladi.

Qaytadan kreditlanadigan mablag'lar bo'yicha majburiyatlarning qarz oluvchi-rezidentlar yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari tomonidan o'z vaqtida bajarilmaganligidan yoki to'liq bajarilmaganligidan qat'i nazar, vakolatli organ mazkur majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi uchun javobgar bo'ladi.

47-modda. Kafolat jamg'armasi

Kafolat jamg'armasining mablag'lari davlat kafolati berilganligi uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasining marjasi va qonunchilikda belgilangan boshqa mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunida Kafolat jamg'armasi mablag'larining moliya yili davomida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan eng kam miqdori belgilanadi.

Kafolat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ushbu mablag'lardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

48-modda. Davlat qarzi bo'yicha majburiyatlarni bajarish

Qarz oluvchi-rezidentlar va loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari asosiy qarz bo'yicha to'lovlarni, foizlarni hamda davlat qarzi bo'yicha boshqa to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha asosiy qarzning, foizlarning va boshqa to'lovlarning o'z vaqtida yoki to'liq amalga oshirilmasligi ehtimoli yuzaga kelgan taqdirda, qarz oluvchi-rezidentlar yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari vakolatli organni to'lovga qobiliyatsizlik ehtimoli to'g'risida to'lov sanasidan kamida o'ttiz kun oldin yozma (elektron) shaklda xabardor qilishi kerak.

Vakolatli organga yuborilgan xabarnomada O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashni amalga oshirish mumkin emasligi sabablari asoslantiriladi.

Agar vakolatli organ qarz oluvchi-rezidentlar yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashni amalga oshirish mumkin emasligi sabablarini asosli deb topsa, vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan qarz mablag'lari bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni hamda boshqa to'lovlarni yuborilgan xabarnomaga muvofiq to'lashni mazkur qarz oluvchi-rezidentdan hamda loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlaridan so'zsiz va to'liq undirish sharti bilan Kafolat jamg'armasi mablag'lari hisobidan, Kafolat jamg'armasining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan amalga oshiradi, aks holda, qarz oluvchi-rezidentlarni va loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlarini qarz mablag'lari bo'yicha asosiy qarzning, foizlarning hamda boshqa to'lovlarning Kafolat jamg'armasi mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan to'lanishini rad etish to'g'risida xabardor qiladi.

Vakolatli organ qarz oluvchi-rezident qaytadan kreditlash to'g'risidagi shartnomaga muvofiq to'lashi lozim bo'lgan to'lovlar miqdoriga teng bo'lgan summani, agar ushbu to'lovlar qaytadan kreditlash to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda to'lanmasa, qarz oluvchi-rezidentlarning yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlarining barcha hisobvaraqlaridan istalgan valyutada so'zsiz undirib olish huquqiga ega.

Vakolatli organ davlat kafolati hodisasi yuzaga kelganda davlat kafolati bilan kafolatlangan asosiy qarzni, foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lashni Kafolat jamg'armasi mablag'lari hisobidan, Kafolat jamg'armasining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda esa, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hamda boshqa manbalar hisobidan, ushbu to'lovlar summasini qarz oluvchi-rezidentdan keyinchalik so'zsiz va to'liq undirish sharti bilan amalga oshiradi.

Muddati o'tgan, Kafolat jamg'armasining yoki O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag'lari hisobidan qoplangan va o'z muddatida qaytarilmagan qarzdorlik bo'yicha belgilangan tartibda, qaytadan

kreditlash to'g'risidagi shartnoma yoki davlat kafolati haqidagi shartnoma shartlariga muvofiq penyalar va jarimalar undiriladi.

Penya va jarimani to'lash qarz oluvchi-rezidentlarni yoki loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlarini qaytadan kreditlash to'g'risidagi shartnoma yoki davlat kafolati haqidagi shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

Vakolatli organ Kafolat jamg'armasining yoki O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining mablag'lari hisobidan qoplangan to'lovlar qarz oluvchi-rezidentlar va loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari tomonidan qaytarilmagan hollar to'g'risida har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15 sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga axborot taqdim etadi.

9-bob. Davlat qarzining hisobi va hisobotini yuritish. Axborotning ochiqligi va shaffofligi

49-modda. Davlat qarzining hisobi va hisobotini yuritish

Davlat qarzining hisobi O'zbekiston Respublikasi valyutasida yoki chet el valyutalariga teng ekvivalentda yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan diskont obligatsiyalar (nol kupon stavkali obligatsiyalar) tarzida chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlarining hisobi ushbu qimmatli qog'ozlar dastlab chiqarilganda belgilanadigan nominal narxda yuritiladi.

Vakolatli organ davlat qarzining hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq yuritishi va e'lon qilishi mumkin.

50-modda. Davlat qarzi to'g'risidagi axborotning taqdim etilishi

Qarz oluvchi-rezidentlar, loyihani amalga oshirishda ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari davlat qarzi to'g'risidagi axborotni belgilangan shakllarda, hisobot choragidan keyingi oyning 15 sanasidan kechiktirmay vakolatli organga taqdim etadi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar o'zi jalb qilgan qarzlar to'g'risidagi (bundan O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki davlat kafolati ostida jalb qilingan qarzlar mustasno) axborotni belgilangan shakllarda, har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15 sanasidan kechiktirmay vakolatli organga taqdim etishi kerak.

Davlat qarzi to'g'risidagi axborotni taqdim etish shakllari vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

51-modda. Davlat qarzi to'g'risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

davlat qarzining holati va o'zgarishi to'g'risidagi;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar (loyihani amalga oshirayotgan tashkilot va loyihaning qiymati, xaridlar rejasi, amalga oshirilgan xaridlar, qarzdorlikning o'z vaqtida to'lanishi, yakunlangan loyihaning samaradorligi hamda texnik-iqtisodiy asosida nazarda tutilgan maqsadlarga erishilishi va boshqa axborot) haqidagi;

davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshirilgan, yakunlangan loyihalarning samaradorligi va texnik-iqtisodiy asosida nazarda tutilgan maqsadlarga erishilishi to'g'risidagi axborotni har chorakda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga kiritadi. Bunda yakunlangan loyihaning samaradorligi va texnik-iqtisodiy asosida nazarda tutilgan maqsadlarga erishilishi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga loyiha yakunlangan sanadan e'tiboran keyingi besh yil ichida kiritib boriladi.

Ushbu moddaning [birinchi qismida](#) ko'rsatilgan axborot O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Vakolatli organ davlat qarzining holati va o'zgarishi to'g'risidagi aniqlashtirilgan axborotni har chorakda, hisobot choragidan keyingi ikkinchi oyning 25 sanasiga qadar o'z rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

Davlat organlari, budget tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari hamda rasmiy veb-saytlarga ega bo'lgan boshqa yuridik shaxslar davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan moliyalashtirilayotgan tegishli loyihalar haqidagi va yakunlangan loyihalar bo'yicha o'zlashtirilgan mablag'lar, shuningdek erishilgan natijalar to'g'risidagi axborotni har chorakda, hisobot choragidan keyingi ikkinchi oyning 25 sanasiga qadar o'z rasmiy veb-saytlarida muntazam ravishda, majburiy tartibda e'lon qilib boradi.

Rasmiy veb-saytlari mavjud bo'lmagan yuridik shaxslar davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan moliyalashtirilayotgan va yakunlangan loyihalar bo'yicha o'zlashtirilgan mablag'lar, shuningdek erishilgan natijalar to'g'risidagi axborotni har chorakda, hisobot choragidan keyingi ikkinchi oyning 25 sanasiga qadar tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining rasmiy veb-saytlariga majburiy tartibda joylashtiradi.

52-modda. Xalqaro tashkilotlarga va chet el investorlariga axborot taqdim etish

Vakolatli organ xalqaro moliya institutlari va iqtisodiy institutlarga, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlariga, xalqaro reyting agentliklariga, chet el investorlariga hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentlariga davlat qarzi va davlatning shartli majburiyatlari to'g'risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etishi mumkin.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

53-modda. Nizolarni hal etish

Davlat qarzi sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

54-modda. Davlat qarzi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Davlat qarzi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

55-modda. Davlat qarzi to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazorati

Davlat qarzi to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazorati qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, boshqa davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

56-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

(56-moddaning 1-bandida O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 25-oktabrdagi O'RQ-982-sonli [Qonuniga](#) asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.10.2024-y., 03/24/982/0854-son)

2. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan "Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida"gi 263-I-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, № 9, 126-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, № 12, 350-modda; 2018-yil, № 7, 431-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi o'zgartishlar va qo'shimcha kiritilsin:

1) [1-moddaning](#):

[beshinchi xatboshisi](#) chiqarib tashlansin;

[oltinchi](#), [yettinchi](#) va [sakkizinchi xatboshilari](#) tegishincha beshinchi, oltinchi va yettinchi xatboshilar deb hisoblansin;

2) [2-modda](#):

quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirilsin:

“Davlat qarzi bilan bog‘liq munosabatlar alohida qonun bilan tartibga solinadi”;

ikkinchi qismi uchinchi qism deb hisoblansin;

3) [4](#), [5](#) va [8-moddalar](#) chiqarib tashlansin;

4) [9-moddaning](#):

[oltinchi](#) va [yettinchi xatboshilari](#) chiqarib tashlansin;

[sakkizinchi](#), [to‘qqizinchi](#) va [o‘ninchi xatboshilari](#) tegishincha oltinchi, yettinchi va sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

5) [9¹-modda](#) chiqarib tashlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-iyulda qabul qilingan “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘RQ-163-sonli [Qonuniga](#) (O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyunda qabul qilingan O‘RQ-387-sonli Qonuni tahririda) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, № 6, 227-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 3, 166-modda, № 4, 199-modda, № 12, 891-modda; 2020-yil, № 7, 449-modda, № 10, 593-modda; 2021-yil, № 1, 13-modda, 4-songa ilova, № 10, 968, 973-moddalar) quyidagi o‘zgartishlar kiritilsin:

1) 1-moddaning [ikkinchi qismidagi](#) “g‘azna majburiyatlari” degan so‘zlar “davlat g‘aznachilik obligatsiyalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) [3-moddaning](#):

[oltinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat qimmatli qog‘ozlari — O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat g‘aznachilik obligatsiyalari, xalqaro obligatsiyalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari”;

[o‘ttizinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat g‘aznachilik obligatsiyalari — emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, to‘lanish muddatidan qat’i nazar, ular egalik qiluvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetiga pul mablag‘lari kiritilganligini tasdiqlaydi va ushbu emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat’iy belgilangan daromad olish huquqini beradi”.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Budjet [kodeksiga](#) (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013-yil, 12-songa 1-ilova; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2015-yil, № 12, 452-modda; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 6, 300-modda, № 10, 605-modda, № 12, 772-modda; 2018-yil, № 1, 1-modda, № 7, 431, 433-moddalar, № 12, 783-modda; 2019-yil, № 1, 1-modda, № 5, 265-modda, № 8, 470-modda, № 9, 588-modda, № 11, 791-modda, № 12, 884, 891-moddalar; 2020-yil, № 3, 203-modda, № 11, 652-modda, № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 7, 13-

moddalar, 4-songa ilova, № 8, 803, 804-moddalar, № 10, 973-modda, № 12, 1198-modda) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

1) 3-modda [yigirma to'rtinchi xatboshisining](#) o'zbekcha matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat qarzi — O‘zbekiston Respublikasining ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlari”;

2) 29-modda birinchi qismining [o'ttizinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi, davlat kafolatini bajaradi”;

3) 70-modda birinchi qismi 8-bandining [beshinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va davlat kafolatini bajarish bilan bog'liq xarajatlar”;

4) 112-modda oltinchi qismining [o'n birinchi xatboshisidagi](#) “davlat qarzini to'lash va unga xizmat ko'rsatish” degan so'zlar “davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

5) 152-moddaning [beshinchi](#) va [oltinchi qismlari](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining taqchilligini qoplash;

ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish;

davlat qarzini qayta moliyalashtirish;

davlat qarzini boshqarish strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish;

pul mablag‘larini boshqarish, shu jumladan vaqtinchalik kassa uzilishining o‘rnini qoplash bo'yicha operatsiyalarni bajarish;

to'lov balansini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining taqchilligini qoplash uchun amalga oshiriladi”;

6) 153-moddaning [uchinchi qismi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi, davlat kafolatini bajaradi”;

7) [154-modda](#):

ikkinchi qismining [ikkinchi](#) va [uchinchi xatboshilari](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirishga yoki birgalikda moliyalashtirishga;

davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarni bajarishga doir tadbirlarni moliyalashtirish uchun kreditlarni (qarzlarni) qaytadan kreditlashga yo'naltiriladi”;

[uchinchi qismidagi](#) “jalb qilinayotgan kredit (qarz) stavkasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda”

degan soʻzlar chiqarib tashlansin;

8) 156-modda:

ikkinchi qismining:

ikkinchi xatboshisidagi “davlat qimmatli qogʻozlarini” degan soʻzlar “davlat gʻaznachilik obligatsiyalarini” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshisidagi “davlat qimmatli qogʻozlari” degan soʻzlar “davlat gʻaznachilik obligatsiyalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

toʻrtinchi xatboshisidagi “davlat qimmatli qogʻozlari” degan soʻzlar “davlat gʻaznachilik obligatsiyalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismi chiqarib tashlansin.

5. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyulda qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasining Hisob palatasi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-546-sonli Qonuniga (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 7, 384-modda, № 9, 588-modda; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 803, 804-moddalar, № 12, 1198-modda) quyidagi oʻzgartishlar kiritilsin:

1) 4-moddaning toʻqqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“budjet tizimi budjetlarining mablagʻlari va davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning maqsadga muvofiqligi, asosiligi hamda samaradorligini baholash”;

2) 25-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“25-modda. Hisob palatasining budjet tizimi budjetlarining mablagʻlari va davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning maqsadga muvofiqligi, asosiligi hamda samaradorligini baholash sohasidagi funksiyalari

Hisob palatasi budjet tizimi budjetlarining mablagʻlari va davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning maqsadga muvofiqligi, asosiligi hamda samaradorligini baholash sohasida:

budjet tizimi budjetlarining mablagʻlari va davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning shakllantirilishi yuzasidan monitoring oʻtkazadi hamda nazorat qiladi;

budjet tizimi budjetlarining mablagʻlari va davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning toʻliq hamda samarali bajarilishi ustidan nazorat qiladi;

davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish hisobidan amalga oshirilgan va yakunlangan loyihalarni auditdan oʻtkazadi, audit natijalari haqidagi axborotni har chorak oxirida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi”;

3) 29-moddaning oʻninchi xatboshisidagi “oʻz vaqtida xizmat koʻrsatilishi ustidan nazorat qiladi” degan soʻzlar “oʻz vaqtida va toʻliq xizmat koʻrsatilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

57-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini taʼminlash

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi oʻrtasida

tushuntirilishini ta'minlasin.

58-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

59-modda. O'tuvchi qoidalar

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar O'zbekiston Respublikasi nomidan mablag' jalb qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalar va berilgan davlat kafolatlari o'z kuchida qoladi.

60-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2023-yil 29-aprel,

O'RQ-836-son

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/836/0232-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 26.10.2024-y., 03/24/982/0854-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son; 26.12.2025-y., 03/25/1107/1216-son)